

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ASALARICHILIKDA ASALARI OILALARINI TANLASH

Qudratov Qilichbek Xursanovich

Sayxunobod tuman 2-sonli kasb- hunar maktabi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Asalarichilik sohasi qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Asalarilardan inson sog'ligi uchun zarur bo'lgan asal, xalq xo'jaligida ishlatiladigan mum, tibbiyotda ishlatiladigan asalari suti, propolis hamda asalari zahari olinadi.

Kalit so'zlari: Asalari, asalarichilik, asal, ishchi asalarilar, erkak asalari, ona asalari, asalari zotlarini tanlash.

Asalari oilasi. Asalarilarning o'rtacha oilasi 50–80 ming ishchi asalari, yuzlarcha erkak asalari va bitta ona asalaridan tashkil topadi. Shu bilan bir vaqtda, oilada tuxum, lichinka va g'umbaklar ham bo'ladi.

Uyaning ko'p qismini ishchi asalarilar tashkil etadi. Ishchi asalarilar uya asalarilariga va uchadigan dala asalarilarga bo'linadi. Bahor va kuzda, ya'ni tabiatda gulchangi va gulshira ko'proq bo'lganda ishchi asalarilar 40–45 kungacha yashay oladi. Kuz va qishlovdan oldin tuxumdan chiqqan asalarilar esa, olti- yetti oy yashaydi. Erkak asalarilar oilaning vaqtincha a'zosi hisoblanadi. Ularning birdan-bir vazifasi ona asalarini ko'proq urug'lantirishdir. Erkak asalarilar bahor o'rtalarida vujudga keladi. Ishchi asalarilar erkak asalarini faqat shira yig'ish paytidagina boqadilar. Shira yig'ish ishi tugashi bilan, erkak asalarilar raxmsiz suratda, uyadan haydab chiqariladi.

Ona asalari uyadagi yagona urg'ochi asalari bo'lib, barcha asalarilarning onasidir. Yaxshi ona asalari kuniga 2000 tagacha tuxum qo'yadi. Asalari oilasining sog'lom bo'lishi, ona asalarining sifatiga bog'liq. Ona asalari besh yilgacha yashashi mumkin. Ammo ikki yoshga kirgach, uning tuxum qo'yish qobiliyati pasayadi va ko'proq erkak asalari chiqadigan tuxum qo'ya boshlaydi. Shuning uchun ham tajribali asalarichilar ona asalarini har yili almashtiradilar.

Zotli asalari tayyorlash yoki toza zotni ko'paytirish ommaviy fenotipik va individual, genotipik tanlash, ya'ni oddiy va murakkab zotlararo sanoat chatishtirish asosida olib boriladi. Ommaviy tanlash asalarichilik fermer xo'jaligida asalarilar oilasining foydali xo'jalik va zot sifatlarini yaxshilashda eng qulay va sinalgan usuldir. Uning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mohiyati reja asosida eng yomon asalarilar oilasini yo'qotib eng yaxshi oilalarni jadal ravishda ko'paytirishdir.

Asalari zotlarini tanlash. Asalari zotlarini tanlash, sizga asalari oilasi qanday maqsad uchun zarurligiga bog'liq. Kimdir uning asaliga shaydo bo'lsa, kimdir uning uchib yurishini, uning ishini ko'rib zavqlanib yashaydi. Agarda asalarining asali uchun oladigan bo'lsangiz, u holda ko'p asal beradigan asalari zotlarini tanlang.

Asalarichilikda shu paytgacha ham hali inson tomonidan birorta ham asalari zotlari yaratilmagan. Shunga qaramasdan har bir hududning tabiiy iqlim sharoitiga moslashgan asalari zotlari bor. Mana shu zotlarni aborigen zot deb ataladi.

Bugungi kunda yurtimizda ko'p asal beradigan mahalliy zotli asalarilar bilan birga "O'rta rus", "Kulrang Kavkaz tog' asalarisi", "Karpas" zotli asalarilar va boshqa joydan keltirilgan "Italiya" zotli asalari hamda Avstriyadan keltirilgan "Krainka" asalari zotlari tarqalgan.

Agar asalari oilasini xarid qilmoqchi bo'lsangiz, avvalo, uning sog'lomligiga e'tibor bering. Asalari oilasiga chetdan turib razm soling, asalarilarning uyadan uchish va qaytib kelishiga e'tibor bering. Ularning uchish parvozi bir tekisda, ittifoq bo'lishi kerak. Negaki, ba'zi asalari oilalarida asalari parvozi ancha sust bo'ladi. Bu esa bunday asalari oilalarida ona asalari keksa yoshli va kam mahsulligidan darak beradi.

Bundan tashqari, uyadagi ona asalari yoshiga e'tibor bering. Yosh ona asalarilar tez harakatchan bo'ladi, keksa ona asalarilar esa sekin harakat qilib, uning qanotlarining uchki qismi bir oz qirqilgan bo'ladi. Uyadagi ramkalaridagi naslni joylashishiga e'tibor qarating. Ramkadagi ochiq va yopiq nasl bir tekis joylashgan bo'lsa, demak ona asalari yosh, serpusht bo'ladi. Oilada erkak asalari soni ko'p bo'lsa, bilingki, oiladagi ona asalarining yoshi kattadir. Bunday ona asalarini almashtirishga to'g'ri keladi. Shu belgilar bilan oiladagi ona asalarining yoshi aniqlanadi.

Ko'p asal beradigan asalari oilasini qanday aniqlasa bo'ladi? Asalari oilasini kuchiga qarab, albatta. Ko'p asal beradigan asalari oilasida ramkalar soni 10–15 ta va undan ham ko'p bo'ladi. Bu ramkalarda 8–10 ta gacha ochiq va yopiq nasllar bo'lishi lozim. Ramkalar orasidagi yo'lakchalar asalari bilan zich joylashgan bo'lishi kerak. Bu belgilar, albatta asalari oilasi kuchli va ko'p asal to'plashidan dalolat beradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Asalari oilasining tekshirish qoidalari. Asalari oilasini tashqi harorat salqin joyda 14°C dan past bo'lmaganda, umumiy tekshirishga kirishiladi. Ammo asalari oilasining umumiy ahvoli qoniqarli bo'lsa, u holda to'liq tekshirish ishlari havo harorati 16–18°C bo'lguncha qoldiriladi.

Asalari oilasini tekshirayotgan vaqtda asalarichining qo'li toza, oq yoki qora xalat hamda qo'lansa (atir, upa, piyoz, sarimsoqpiyoz, benzin, kerosin, ter) hid kelmaydigan kiyimlarni kiygan bo'lishi kerak. Shunday qilinganda asalarilar kam bezovtalanadi va chaqishga harakat qilmaydi.

Asalari oilasini tekshirishda tutatgich yordamida asalari uyasiga asalari kiradigan tuynukcha orqali 2–3 marta tutun tutatiladi, oradan 1–1,5 daqiqa o'tgach uya qopqog'i ochilib, ustki yopqichning bir chekkasini qaytarib, sekin- asta ramkalarni asalarichi iskanasi yordamida sug'urib olib, tekshirishga kirishiladi.

Uyani tekshirish vaqtida asalarilar bilan ishlash qoidasiga (uyani taqillatmay, asalarilarni bezovtalantirmay) amal qilish kerak. Oilani tekshirish vaqtida asalarichi asalari kiradigan tuynukcha oldini to'sib qo'ymasligi lozim, u uyaning yon tarafida turib ishlashi zarur, aks holda asalarilar bezovtalanishi mumkin. Bundan tashqari, asalari uyasi tekshirilayotgan paytda, qo'shni uya asalarilari o'g'irlikka kirayotganini sezsa ham asalarilar bezovtalanadi. Shuning uchun ham tekshirishni darhol narigi chetdagi qatordan boshlash kerak.

Asalarichi ish bajarishga kirishishda, avval ishlash uchun kerakli asboblar: asalarichi ko'chma qutisi, chirigan to'nka, daraxt po'kagi, va tutatgich asbobini tayyorlab qo'yishi lozim. Asalarizorda asalari oilasi bilan ish boshlashda, oldin oq xalat va boshga kiyiladigan to'rli yuz niqobini kiyib ishga kirishish kerak.

Uyadan sug'urib olingan ramkalarni uya ustida kuzatish tavsiya etiladi, shunday qilinganda ramkadan to'qilgan yosh asalarilar uyaga tushadi va nobud bo'lmaydi.

Ramkalarni asalarilardan tozalash kerak bo'lsa, g'oz patidan tayyorlangan supurgi yoki boylangan bir tutam o't yordamida, asalarilar supurib tushiriladi. Agar o'sha ramkada yosh asalari qurtchalari va yangi keltirilgan gul shirasi bo'lmasa, u holda ramkaning ikki chetidan mahkam ushlab, asalarilarni silkitib tushirish mumkin.

Oilaning ichki hajmi kengaytirilayotganda yuzaki tekshiriladi va chekkadagi ramkalarni bir oz chetga surib, ularning o'rniga kengaytirishga mo'ljallangan ramkalar qo'yiladi. Agar tabiatdan shira kelayotgan bo'lsa, u holda asalari uyasining kerakli joylariga mumpardali ramkalar beriladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Parvarishlash. Uy sharoitida asalari oilasini parvarish qilayotganingizda, daladan yaxshigina shira kelayotgan bo'lsa, yangi berilgan mumpardali ramkalarni bir kunda to'qiydi. Uyadagi ramkalarni ustki qismi oqarib ketadi, hatto uyadagi ramkalar ustidagi surp-matoni ham mum bilan yopishtirib tashlaydi, shunda ularni ramkalar ustidan zo'rg'a ko'tarib olish mumkin. Bu belgilar, asal tortish davri boshlanishini bildiradi.

Uyadan asalli ramkalarni olishdan oldin, tutatgich asbobi bilan asalari uyasiga bir oz tutun kiritiladi. So'ngra asalli ramkalar olinadi. Bunda ochiq naslli ramkalar olinmaydi va ona asalari ohistalik bilan boshqa ramkaga olib qo'yiladi.

Asalli ramkalar ustidagi mum qopqoqchalar, o'tkir va issiq pichoq yordamida kesib olinadi. Bunday ramkalardagi asal maxsus asbob asaltortkich yordamida ajratib olinadi. Asali olingan ramkalarga bir oz suv sepib, asalari oilasiga berilsa, uni asalarilar tez va oson tozalab qo'yadi.

Asal tortish mavsumi yil davomida 2–3 marotaba, ayrim yillarda esa undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Asal tortish mavsumi tugagach, asalari oilasini qishlovga tayyorlanadi. Buning uchun qishlovga ketadigan asalari oilalariga ko'p miqdorda yosh asalarilar bo'lishi ta'minlanadi va har bir asalari oilasiga qishlov uchun, uning kuchiga qarab 10–15 kg. gacha sifatli ozuqa asal qoldirish lozim.

Qishlovga ketadigan asalari uyasidagi ramkalarining ustiga va yon tomonida isitish yostiqlari bilan o'rab qo'yiladi. Asalari qutisidagi ustki va ostki uchish tuynuklari hajmi bitta asalari qirib chiqadigan tarzda, toraytirib qo'yiladi. Qishlov davrida onda-sonda kelib, qishlov qanday o'tishini tekshirib turiladi.

Hulosa qilib aytganda, asalarichilikda asalari oilalarini tanlashning asosiy mazmuni asal mahsuldorligidir, uni ko'paytirish esa naslchilik ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Unda arilarning qishlovga, kasalliklarga chidamliligi, ona asalarining serpushtligi, asalari oilasining qay darajada rivojlanganligi, roylarga (ko'chga) ajralishi, mum mahsuldorligi va umuman asalarichilikning rentabelligi kabi foydali xo'jalik belgilari ham hisobga olinishi kerak. Asalarilarning mahsuldorli olingan yalpi asal miqdori bilan baholanadi. Buning uchun qishda asalarining bitta oilasiga, yoki uning bir yo'lagiga sarf qilingan oziq miqdori, qishlovga kirgan va qish vaqtida nobud bo'lgan asalarilar soni (gramm yoki yo'lak hisobida), arixonaning o'tish darajasi aniqlanadi.

Asalari oilasining sog'lomligi, u yoki bu kasalliklarga chidamliligi, tuxumdan chiqqan lichinka va yetuk asalarilarni doimiy ravishda ko'rib chiqish va veterinariya



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bakteriologik laboratoriyalarda analiz qilish yo'li bilan aniqlanadi, nasldor oilalar mutlaq sog'lom bo'lishi kerak.

Asalari oilasining kuchini uyadagi asalari miqdoriga (bitta romda 200-250 asalari bo'ladi) va ona arilarning romdagi nasli bo'yicha serpushtligiga (ochiq va pechatlangan naslni birga olganda) qarab bahorda, asosiy asal yig'ish vaqtining boshlanishida va kuzgi taftish o'tkazish vaqtida aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03/1-348 sonli «Respublikada 2009-2011-yillarda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar» dastur T. 2009-yil 3-mart.
2. N.F. Kraxotin. «O'zbekistonda asalarichlik» T. Mehnat, 1985.
3. A. Isamuhamedov - «Asalarichilik» T. O'qituvchi, 1995.
4. H. F. Kraxotin «Kalendar pchelovoda». M. 1989.
5. A.G. Avestesyan «Pchelovodstva», M.
6. A.S. Nujdin «Osnovo' pchelovodstva» M. 1988.
7. I.X. Irgashev., S.Starkov. «Osnovo' pchelovodstva i bolezni pchel». T. Mexnat, 1987.
8. T.Sh. Akmalxonov «Asalarichilik» (ma'ruza matnlari) T. 2000.
9. T.Sh. Akmalxonov, S.Sh.Isamuhamedov, B.A.Qahramonov. - «Asalarichilikdan amaliy mashg'ulot darslari topshiriqlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma» T. ToshDAU, 2000
10. www.google.uz
11. www.google.ru
12. www.ziyonet.uz

